



Science technology & Digital finance

journal homepage: <https://supportresult.uz/index.php/stdf>

THE DEVELOPMENT AND VARIABILITY OF THE STYLE OF THINKING IN ACCORDANCE WITH SOCIAL REALITY

Hosilmurodov Islam Khamitolim ugli

Assistant of Jizzakh branch of the University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

РАЗВИТИЕ И ВАРИАТИВНОСТЬ СТИЛЯ МЫШЛЕНИЯ В СООТВЕТСТВИИ С СОЦИАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТЬЮ

Хасилмуродов Ислам Хамитолим оглы

Ассистент Джизакского филиала Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

TAFAKKUR USLUBINING IJTIMOIIY VOQELIKKA MOS RIVOJLANISHI VA O'ZGARUVCHANLIGI

Hosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston universiteti Jizzax filiali assistenti.

abstract

Today, as a result of the process of globalization, which covers the Earth, there are dramatic changes in the consciousness and thinking of mankind. In particular, there is an increase in various mental influences on the way of thinking. The importance of philosophical thinking is also incomparable in order to understand the world, comprehend the laws of life and society in every possible way, to know the worldview of different peoples and nations on Earth. In a word, arming our youth with philosophical thinking is a requirement of the era.

аннотация

Сегодня в результате глобализационного процесса, охватившего землю, в сознании и мышлении человечества происходят кардинальные изменения. В частности, усиливаются различные психические влияния на образ мышления. Неотвратима и значимость философского мышления для познания мира, всестороннего понимания законов жизни и общества, познания мировоззрения различных народов и народностей Земли. Одним словом, вооружить нашу молодежь философским мышлением-требование времени.

annotatsiya

Bugungi kunda yer yuzini qamrab olgan globallashuv jarayoni natijasida insoniyat ongi va tafakkurida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, tafakkur tarziga turli xil mental ta'sirlarning kuchayishi ortmoqda. Dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etish, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashini bilish uchun ham falsafiy tafakkurning ahamiyati beqiyos. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish - davr talabi.

Keywords:

Thought, thought, reasoning, mental cognition, structure, essence, being, nature, society, logic, mentality.

Ключевые слова:

Мысль, мысль, рассуждение, психическое познание, структура, сущность, бытие, природа, общество, логика, мышление.

Kalit so'zlar:

Tafakkur, fikr, mulohaza, aqliy bilish, struktura, mohiyat, borliq, tabiat, jamiyat, mantiq, mentalitet.

© 2023 Hosilmurodov Islam Khamitolim ugli.

Kirish

Tabiatning gultoji bo‘lgan, jamiki tiriklik ichida faqatgina insonga eng buyuk ne‘mat sifatida tafakkur berilgan. Bizningcha tafakkur insonning inson ekanligini tasdiqlovchi eng asosiy mezondir. Tafakkurning o‘zi “arabcha so‘z bo‘lib fikrlash, aqliy bilish”[1] degan ma‘noni bildiradi. Ya‘ni, fikrlash bilan tafakkur aynanlik xususiyatiga ega. Tafakkurning mohiyati, uning inson hayotidagi naqadar muhim ekanligi haqida mulohazalar qadimdan to bugungacha ham to‘xtagani yo‘q. Antik davr yunon faylasufi Platon “tafakkur yagona munosib tangadir, faqatgina ana shu tangaga hamma narsani almashish mumkin”[2] deb tafakkurni yuksak baholagan. Bizningcha ham tafakkur inson hayotining asosiy poydevoridir. Tafakkursiz inson shunchaki inson qiyofasidagi odamning bir vakili bo‘lib gavdalanadi. Tafakkurning inson hayotidagi ahamiyatini birinchi Prezident I.A.Karimovning “kuch-bilim va tafakkurda”[3] degan fikrida ham yaqqol ko‘rinadi. Darhaqiqat, kuch hamisha bilim va yuksak tafakkur sohiblarida bo‘lgan buni tarix domimo isbotlab kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrof-dagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo‘ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq — til bilan chambarchas bog‘langan. Insonda tafakkur va nutq bo‘lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o‘z atrofidagi olamda bo‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Sezgi va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Masalan, biz quyoshning har kun Sharqdan chiqib, G‘arbga botayotganligini hammamiz ko‘ramiz (idroki qilamiz). Biz Yerning qimirlamay turganligini, quyosh esa yer atrofida aylanayotganligini ko‘ramiz. Ko‘p asrlar davomida juda ko‘p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasidagina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tidqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan, balki yer o‘z o‘qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati to‘g‘risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga to‘g‘ri kelmas ekan, voqelikning to‘g‘ri aks etishi, ya‘ni haqiqat — buni tafakkur yordami bilan aniqlandi.

Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to‘laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok va tasavvur vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan, bizga ma‘lumki, agar

yorug'lik nuri shisha prizma orqali o'tkazilsa, bu nur spel, rang yetti mingga ajralib ketadi, bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko'zimiz bila ko'ramiz), lekin fizikadan bizga, shu narsa ma'lumki, bu nurlardan bo'lak, yangi boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar, infraqizil va ultrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko'rmaymiz, idrok qilmaymiz. Bunday nurlarning borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Tafakkur — voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Biz ayrim-ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida, umuman mebel va umuman narsa to'g'risida esa fikrlashishimiz mumkin.

Xulosa

Ijtimoiy turmushning asoschilari ochib bergan qonunlarini bilish ijtimoiy-siyosiy voqealarning qanday bo'lib borishini oldindan ko'rib turish imkoniyatini beradi. Oldindan ko'rish o'z oldimizga inaqsadlar qo'yishimizga va shu maqsadlarga muvofiq harakat qilishimizga imkon beradi. Oldindan ko'rish va atrofimizdagi buyumlarning xossalarini bilish tufayli insoniyatning hozirgi tajribasi vujudga kelgan, bu esa xilma-xil mehnat bilan shug'ullanish imkoniyatini ochib bermoqda. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiyashtirib aks ettirishiga (bilishiga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi. Bosh miya po'stining biron-bir uchastkasi emas, balki bosh miyaning butun po'sti qilayotgan faoliyat tafakkurning nerv-fiziologik negizidir. Analizatorlarning miyaga borib tutashgan uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab muvaqqat bog'lanishlar tafakkur qilish uchun birinchi galda ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, ikkinchi signal sistemasi bilan birinchi signal sistemasining bir-biriga ta'sir o'tkazishida muvaqqat bog'lanishlarning vujudga kelishi tafakkurning spetsifik nerv-fiziologik mexanizmaridir. I.P.Pavlov aytganidek, «Avvalo, umuminsoniy empirizmni, (insonning tajribasi, orttirgan bilimlari) nihoyat atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur» ayni shu bog'lanishlar asosida voqe bo'ladi. Tafakkurni yo'naltirib turadigan asosiy nerv-fiziologik negiz shunday yo'l ko'rsatib turuvchi refleksdirki, bu refleks tafakkur qilish jarayonlarida katta rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Фалсафа қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров)-Т.: Шарқ нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. 390-бет.
2. С.Жўраева. 96 мумтоз файласуф. –Т.:Янги аср авлоди, 2011., 46-б.
3. Каримов И.А. Ватан ва халқ мангу қолади.-Т.:Манавият, 2010.-Б. 14

4. Islom Xosilmurodov Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 982-990b.
5. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
6. Xosilmurodov Islom, Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2023.04.15. 434-437b.
7. Kamolov D. R. O. G. L. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA VA AXLOQNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – C. 348-352.
8. Islam Hasilmurodov. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. 2022. Noyabr. 138-147b.
9. Kamolov Dostonbek, “SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY”, *SSAI*, vol. 1, no. 2, pp. 128–133, Oct. 2023, Accessed: Oct. 24, 2023. [Online]. Available: <https://supportresult.uz/index.php/ssai/article/view/89>
10. O'G'LI K. D. R. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN //“O ‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o ‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023.
11. O'G'LI K. D. R. O'zbekiston raqamli ta'lim tizimi yo'lida //“O ‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o ‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023.

SUPPORT RESULT
JOURNALS